

KREATIVLIKDA SHAXSIY TAJRIBANING O'RNI

Doniyorova Shahnoza Erkinovna¹, A'zamov Abdumutolib Shuxrat o'g'li²

¹*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lif kafedrasini o'qituvchisi*

²*Texnologik ta'lif yo'nalishi 4-kurs talabasi, Jizzax, O'zbekiston*

e-mail; abdumutolib-1998@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada kreativlikda shaxsiy tajribaning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ qobiliyat, ijodkorlik, iqtidor, kreativ, motiv, qobiliyat.

Аннотация: В статье рассматривается роль личного опыта в творчестве.

Ключевые слова: творчество, творческие способности, творчество, талант, творчество, мотив, способность.

Annotation: The article discusses the role of personal experience in creativity.

Keywords: creativity, creative ability, creativity, talent, creativity, motive, ability.

Kreativ atamasi inglizchadan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi create-yaratmoq (yaratish), ijod qilmoq degan umumiyligi ma'noga ega ekanligini bilib oldik. Ba'zi manbalarda bu haqda "Kreativlilik-ingliz create-yaratmoq, creative – yaratuvchanlik, ijodkorlik" deb ham talqin qilinadi. Quyida bu atamaning rus tilidagi ta'riflarini keltiramiz.

Kreativlilikni lotincha talaffuzda "creo-ijod qilmoq, yaratmoq" deyilgan va uning rus tilidagi ia'rifi quyidagicha ifodalangan.

Shu o'rinda ba'zi manbalarda "kreativ" (yaratmoq yoki ijod qilmoq) atamasini matnda "kreativ qobiliyati" deyilishiga e'tiroz paydo bo'ladi. Buni "kreativ" ning yuqorida ta'kidlangan iqtidorlilik tarkibiga kirganidan kelib chiqib izohlashga urinamiz.

Iqtidorning lug'aviy ma'nosi "Iqtidor (arab.) kuch, qudrat, qodirlik..." bu esa "kreativ – yaratmoq, ijod qilmoq" ga mos keladi. Ana shu "iqtidor" atamasini o'quvchi yoki talabalar faoliyatiga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, "iqtidorli talaba yoki o'quvchi" deyiladi. Shuningdek bu atamani bevosita ularning qobiliyatini rivojlanadirish muammosiga nisbatan ishlatacadigan bo'lsak, "iqtidorli qobiliyatini

rivojlantirish” emas, balki “iqtidorlilik qobiliyatini rivojlantirish” deyilishi mantiqiydir.

Bundan ko‘rinadiki, bu atama umum lug‘aviy ma’noda “iqtidor”, shaxsga nisbatan “iqtidorli”, shaxsning qobiliyatiga nisbatan esa “iqtidorlilik” deyiladi. Aytilganlarni bevosita “kreativ”, “kreativli”, “kreativlilik” larga ham taalluqli deyish mumkin, u holda buni o‘quvchilarning qobiliyatiga qo‘llaydigan bo‘lsak, uni “o‘quvchilar kreativ (yaratmoq, ijod qilmoq) qobiliyatini rivojlantirish” deb emas, balki “o‘quvchilarning kreativlilik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) qobiliyatini rivojlantirish” deyilishi mantiqiydir. Kreativlilikning o‘rniga o‘zbek tilida “ijodiy yaratuvchanlik” yoki “yaratuvchan ijodkorlik” deyish ham mumkin, chunki oddiy ijodkor bilan yaratuvchan ijodkor bir-biridan farq qilishi tabiiy.

Yuqorida keltirilgan lug‘aviy ma’nodagi “kreativ” atamasi tahlilidan kelib chiqib kreativlilik (kreativnost) ning o‘zbek tilidagi ta’rifini “Kreativlilik-iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi va unga bog‘liq bo‘lmagan omil (faktor) sifatida individ (alohida shaxs) aql-zakovatining an’anaviy yoki umum qabul qilingan “fikriy-tafakkur sxemalaridan farq qiluvchi prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligini tavsiflovchi (xarakterlovchi) yaratuvchan ijodkorlik qobiliyat” deyish mumkin.

Ijodkorlikda yaratuvchanlik masalalarini muvaffaqiyatli echishdagi bu kalit muammoni ko‘rib fikriy-tafakkur usullarini o‘zlashtirish va xotirada moddiy dunyoning favqulodda hodisalari, qonuniyatlar va xususiyatlari haqidagi axborotlar bo‘lishini talab qilinadi. Bu holatni o‘ziga xos “kreativlilik formulasi” ning asosi deb tasavvur qilish mumkin.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, kreativlilikda har qanday masalani hal qilishda fikriy-tafakkur faoliyati motivi muhim hisoblanadi.

Motivni manbalarda “Motiv deganda psixologiyada o‘quvchilarning hatti harakatlari tushuniladi. Motivlarning shakllanishiga talablar va instinktlar, mayllar hamda emotsiyalar, yo‘l tutishlar, g‘oyalar va qiziqishlar ta’sir etadi” deb ta’riflangan.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyatini ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bulgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik harakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda xissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Pedagog o‘zida quyidagi kreativlik malakalarini namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda. kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish orqali.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. va boshqalar Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya Toshkent, TDPU, 2013.
2. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo`lajak o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodikqo’llanma, Toshkent, TDPU, 2014.
3. Muslimov N.A., Abdullaeva Q.M., Gayipova N.S. Bo`lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovasion ta`limtexnologiyalridan foydalanish. Metodikqo’llanma, Toshkent, TDPU, 2014.